

XORAZM VILOYATIDA EKOTURIZM INFRATUZILMASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Email: dilxojoyazova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Xorazm viloyatida ekoturizm rivojlanishining hozirgi infratuzilma holati, mavjud imkoniyatlar, aniqlangan muammolar va istiqboldagi yo'nalishlar tahlil qilingan. Tadqiqot kartografik, statistik, taqqoslama va dala kuzatuv metodlari asosida olib borilgan. Natijalar viloyatning ekologik-turistik salohiyatini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kirish: Global darajada turizmning ekologik yo'nalishlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ekoturizm nafaqat dam olish, balki ekologik madaniyatni oshirish, tabiatni muhofaza qilish va mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbai yaratishning samarali yo'lidir. O'zbekiston ham ekoturizmni milliy iqtisodiyotning muhim tarmoq strategiyasi sifatida ko'rib, so'nggi yillarda uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xorazm viloyati Orolbo'yi mintaqasidagi noyob tabiiy landshaftlar, Amudaryo deltasining biologik xilma-xilligi, tarixiy-madaniy meros va an'anaviy qishloq xo'jaligi tizimi bilan ekologik turizm uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq mavjud infratuzilma yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur ilmiy maqolada Xorazm viloyatida ekoturizm infratuzilmasining hozirgi holati tahlil qilinadi, muammolar aniqlanadi va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari asoslab beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

1. Geografik tahlil metodi: Hududning tabiiy-geografik sharoitlari, landshaft zonalari, suv tizimi, o'rmon va cho'l resurslari ilmiy geografik tahlil asosida o'rganildi.
2. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish
3. Xorazm viloyati Ekologiya vazirligi, Turizm departamenti, O'zdavstat ma'lumotlari asosida statistika tahlil qilindi
4. marshrutlar soni, xizmat ko'rsatish obyektlari, ekologik holat ko'rsatkichlari
5. Kartografik metod
6. Ekoturizm obyektlari, transport yo'nalishlari, suv manbalari, cho'l zonalari bo'yicha kartografik tahlil amalga oshirildi.
7. Dala kuzatuv metodi; Amudaryo qirg'oqlari, Qizilqum hududi, Shovot-Gurlan suv obyektlarida tabiiy monitoring kuzatuvlari o'tkazildi. Xorazm ekoturizmi

Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlaridagi ekoturizm tizimlari bilan solishtirildi.

8. SWOT tahlil: Hududning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlar va xavflar aniqlab berildi. Metodlarning uyg'un qo'llanishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minladi.

Asosiy qism

1. Xorazm viloyatida ekoturizm infratuzilmasining hozirgi holati

1.1. Viloyatning ekoturistik resurslari

Xorazm hududi quyidagi tabiiy-ekologik resurslar bilan ajralib turadi:

Amudaryo ekotizimlari;

Qayir o'simliklari (terakzor, jiyyda, qamishzor);

260 dan ortiq qush turlari;

Daryo bo'yi landshaftlari ekologik marshrut uchun qulay. Cho'l landshaftlari — Qizilqumning janubi- Qum barxanlari, Cho'l hayvonot dunyosi (qumsichqon, jayron), Safari turizmi uchun imkoniyat, Suv-resurs asosidagi ekoturizm uchun obyektlar, Shovot kanali bo'ylari, Gurlan suv inshootlari, Baliqchilik xo'jaliklari, Qirg'oq bo'yi dam olish maskanlari, Qishloq ekologik turizmi, Yangiariq, Yangibozor, Urganch tumanlari: bog'lar, an'anaviy dehqonchilik, Mahalliy hunarmandchilik. Biroq ushbu hududlarning aksariyati turistik foydalanish uchun yetarli darajada infratuzilmaga ega emas.

1.2. Transport infratuzilmasining holati: Ekoturizm uchun sifatli transport tizimi muhim hisoblanadi. Ayni vaqtda: Ekoturistik marshrutlarga kiruvchi ichki yo'llarning 40–45% ta'mirtalab. Qizilqum sari olib boruvchi yo'llarda belgilangan yo'l ko'rsatkichlari yetishmaydi. Amudaryo qirg'oqlariga jamoat transporti yo'q. Velosiped yo'laklari va piyoda yo'nalishlari rasmiylashtirilmagan. Bu turistlar harakatini cheklaydi.

1.3. Turistik xizmatlar sifati

Xorazmda tarixiy turizm yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, ekologik xizmatlar kam: Sertifikatlangan ekologik gidlar — juda kam. Eko-qo'nalg'alar, eko-lagerlar — deyarli yo'q. Ekologik ekskursiyalarning ko'lamini kichik. Ekoturistik marshrutlar bo'yicha GPS xaritalar yaratilmagan. Turistik xizmatlarning cheklanganligi salohiyatdan to'liq foydalanishni to'xtatmoqda.

1.4. Ekoturizm infratuzilmasi bo'yicha SWOT tahlil

Kuchli jihatlari:

Tabiiy boyliklar: Amudaryo, cho'l, o'rmonzorlar;

Tarixiy meros bilan uyg'unlik;

Geografik qulay joylashuv;

Zaif jihatlari: Infratuzilmaning past darajasi;

Reklamaning yetishmasligi, kadrlar yetishmovchiligi

Imkoniyatlar:

Xalqaro ekoturizm loyihalarini jalb qilish

Ekofestival va ekologik markazlar yaratish

Hududni ekologik brendga aylantirish

Xavflar: Ekologik muammolar kuchayishi. Noqonuniy qurilishlar, Iqlim o'zgarishining ta'siri. Har bir tuman ekoturizmni o'z imkoniyati bilan rivojlantirmoqda. Yagona boshqaruv markazi yo'qligi sababli:

rejalashtirish tizimi uzviy emas,
resurslar to'g'ri taqsimlanmaydi,
hududiy tafovutlar kuchayadi.

2.2. Xususiy sektorning sust ishtiroki; Investitsiya xavfliligi va ruxsatnoma olishdagi murakkabliklar sabab: eko-lagerlar qurilmayapti, eko-uylar soni kam, turistik startaplarga qo'llab-quvvatlov yetarli emas.

2.3. Ekologik madaniyatning past darajasi: Ayrim hududlarda: chiqindi tashlash, noqonuniy ov qilish, suv ob'ektlarini ifloslantirish holatlari uchraydi. Bu ekoturizm uchun jiddiy xavf.

2.4. Marketing va axborot tizimining sustligi: Xorazmdagi ekoturizm obyektlari bo'yicha mobil ilova yo'q. Ijtimoiy tarmoqlarda professional kontent kam. Hudud bo'yicha 3D virtual marshrutlar yaratilmagan. Ekologik parklar va eko-marshrutlar yaratish. 3.0. Transport infratuzilmasini takomillashtirish: Ekoturizm zonalariga asfalt yo'llar qurish. Veloturizm uchun maxsus yo'laklar. Turistlar uchun eko-shuttle tizimi. GPS asosidagi navigatsiya tizimi. 3.1. Ekologik ta'limni rivojlantirish; Maktablar uchun ekologik kitoblar; Universitetlarda ekoturizm bo'yicha maxsus kurslar; Ekofestival va ekologik ko'rgazmalar.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish uchun katta tabiiy salohiyat mavjud bo'lsa-da, infratuzilmaviy omillar yetarli darajada shakllanmagan. Transport, servis, marketing, boshqaruv tizimi va ekologik madaniyatdagi kamchiliklar ekoturizmni to'liq rivojlantirishga imkon bermayapti. Biroq viloyatning qulay geografik joylashuvi, Amudaryo deltasining noyob ekotizimlari, Qizilqum cho'li, suv obyektlari va qishloq landshaftlari Xorazmni O'zbekistonning eng istiqbolli ekoturistik hududlaridan biriga aylantirishi mumkin. Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha taklif etilgan yo'nalishlar — ekologik bog'lar yaratish, raqamlashtirish, mahalliy aholining ishtirokini kuchaytirish, ekologik ta'limni kengaytirish va transport tizimini takomillashtirish — kelgusida hudud iqtisodiy va ekologik barqarorligiga bevosita hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi statistik ma'lumotlari.
2. Xorazm viloyati ekologiya boshqarmasi 2022–2024 yillar hisobotlari.

3. Jo'rayev T., Mirzayeva Z. "Ekoturizm asoslari".
4. UNEP. "Sustainable Tourism Principles", 2021.
5. Amudaryo deltasining ekologik resurslari bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.
6. O'zbekiston geografiyasi: oliy ta'lim uchun darslik.

